XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-023-3-50-K/24 Zafarobod tumani

Zafarobod tumanining 2025 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01-20-08-02-39/193-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Zafarobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Zafarobod tumani mahalliy byudjetining 2025 yilgi daromadlari **59079047,0 ming so‘m** va xarajatlari esa **68964563,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **9885516,0 ming so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Zafarobod tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **359 000,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga hamda 2025 yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori 2-ilovaga, tuman mahalliy byudjetidan 2025 yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga, tuman mahalliy byudjetining 2025 yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 4-ilovaga, shuningdek tuman mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025 yil uchun **867067,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini

amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 6-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i J.Adilov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (O.Xusanov), tuman soliq inspeksiyasi (J.Alimqulov) bilan birgalikda 2025 yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Zafarobod tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi (L.Hosilbekov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i J.Adilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

ESHPULATOV
G‘AYRATJON
ESHPULATOVICH

Xalq deputatlari Zafarobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-3-50-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Zafarobod tuman mahalliy budjeti daromadlarining
2025 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
JAMI		**71 271 047**	**59 079 047**
1	Foyda solig‘i	876 000	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	3 036 000	3 036 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	22 682 000	22 682 000
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	320 000	320 000
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	15 700 000	
6	Aksiz solig‘i jami	364 000	364 000
6,1	*alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)*		
6,2	*pivo*		
6,3	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni ohirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*364 000*	*364 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*804 000*	804 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	2 879 000	2 879 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 509 047	8 509 047
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4 500 000	4 500 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	*1 360 000*	11 387 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*6 721 000*	4 561 000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	11 000	11 000

14	Davlat boji	1 183 000	
15	Yig‘imlar	630 000	
16	Jarimalar	1 670 000	
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	26 000	26 000

Xalq deputatlari Zafarobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-3-50-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025 yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

foiz hisobida

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me’yori
1	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
2	**Foyda solig‘i*****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
3	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	**Pivo**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
5	**Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni ohirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
6	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
7	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer soliq**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%

		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
8	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
9	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
10	**Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
11	**Aylanmadan soliq**	Tuman budjetiga		100%
		Viloyat budjetiga		0%
12	**Davlat boji**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
13	**Jarima**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
14	**Yig‘imlar**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
15	**Davlat aktivlarini sotishdan tushum (xususiylashtirish)**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%
16	**Mulk va yer huquqini auksion orqali sotishdan tushum**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar, YST - Yirik soliq to‘lovchilar

* *Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (tumanlar) va viloyat budjetlariga ajratma qilinadi.*

** *Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.*

*** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari*

Xalq deputatlari Zafarobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-3-50-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Zafarobod tuman mahalliy budjetidan 2025 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
Xarajatlar miqdori, jami		**68 964 563,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	17 071 880,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 203 740,0
2	Tibbiyot birlashmasi	0,0
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0,0*
3	Madaniyat bo‘limi	3 112 305,0
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	1 618 137,0
5	Sport bo‘limi	4 332 029,0
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 616 793,0
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 613 928,0
8	Irrigatsiya bo‘limi	866 480,0
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 382 107,0
10	Davlat soliq inspekciyasi	
11	Hokimiyat	23 065 102,0
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazi	*66 365,0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*11 550,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*17 046 962,0*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*671 582,0*
	Zahira jamg‘armasi	*867 067,0*
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	633 213,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonaini saqlash xarajatlari	*105 035,0*
	Axborot-kutubxona markazi	*528 178,0*
13	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	12 652 589,0
14	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Zafarobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-3-50-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Zafarobod tuman mahalliy budjetining 2025 yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Mahalliy budjetlarning jami daromadlari**	**Shundan,**		**Mahalliy budjet xarajatlari**
		Mahalliy budjet daromadlari	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
Zafarobod tumani	68 964 563,0	59 079 047,0	9 885 516,0	68 964 563,0

Xalq deputatlari Zafarobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-3-50-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Zafarobod tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Zafarobod tumani	**359 000,0**

Xalq deputatlari Zafarobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-3-50-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Hududlar	Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	1 gektar uchun yer solig‘i stavkasi, so‘mda
1	Birlik QFY	0.78	37 065 600.00
2	Bo‘ston MFY	0.83	39 441 600.00
3	Yorkin ShFY	0.78	37 065 600.00
4	Lolazor QFY	0.70	33 264 000.00
5	Nurafshon ShFY	0.73	34 689 600.00
6	Pistalikent ShFY	0.73	34 689 600.00
7	Samarqand MFY	0.83	39 441 600.00
8	Uzun QFY	0.78	37 065 600.00
9	Chimqo‘rg‘on QFY	0.70	33 264 000.00
10	Cho‘liguliston QFY	0.70	33 264 000.00

Xalq deputatlari Zafarobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-3-50-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Hududlar	Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	1 kv.m. uchun yer solig‘i stavkasi, so‘mda
1	Birlik KFY	0.90	348.48
2	Bo‘ston MFY	0.95	367.84
3	Yorkin MFY	0.90	348.48
4	Lolazor MFY	0.78	302.02
5	Nurafshon ShFY	0.82	317.50
6	Pistalikent ShFY	0.82	317.50
7	Samarqand MFY	0.95	367.84
8	Uzun MFY	0.85	329.12
9	Chimqo‘rg‘on MFY	0.78	302.02
10	Cho‘liguliston MFY	0.78	302.02